



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 2011-5  
2026 - yil 19 - Mart

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRINING  
BUYRUG'I

**O'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida yakuniy davlat attestatsiyasini  
o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga qo'shimcha va  
o'zgartirishlar kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi [Qonuni](#), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-noyabrdagi PF-231-son "Qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish va tartibga solish yukini kamaytirish to'g'risida"gi [Farmoniga](#) muvofiq buyuraman:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining 2009-yil 4-sentabrdagi 39/QQ va 27/QQ-son qarori (ro'yxat raqami 2011, 2009-yil 6-oktabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 41-son, 443-modda) bilan tasdiqlangan O'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir  
10-Mart 2026-yil  
100 son



SHARIPOV KONGRATBAY  
AVEZIMBETOVICH

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirining 2026-yil 10-martdagi 100-son buyrug'iga  
ILOVA

**O'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida yakuniy davlat attestatsiyasini  
o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan qo'shimcha  
va o'zgartirishlar**

1. 25-band quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lgan o'quvchilar tegishli yakuniy attestatsiya topshiriladigan fandan davlat imtihonlarini topshirmaydi va ularga maksimal ball beriladi.”.

2. 30-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“30. Yakuniy attestatsiyani uch yil mobaynida ham topshirmagan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi [nizomga](#) muvofiq, davlat ta'lim standartlari doirasida umumiy o'rta ta'lim dasturlarini mustaqil o'zlashtirgan holda eksternat tartibida yakuniy davlat attestatsiyasini topshirish huquqiga ega bo'ladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasini eksternat tartibida muvaffaqiyatli topshirgan o'quvchilarga belgilangan tartibda o'rta ta'lim to'g'risidagi davlat namunasidagi shahodatnoma beriladi.”.

3. 33-bandda:

quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Bunda ona tili va adabiyot hamda tarix fanlari chuqurlashtirib o'qitiladigan ta'lim yo'nalishlarida ona tili va adabiyot hamda Jahon tarixi fanlaridan og'zaki imtihonlar ham o'tkaziladi.”;

ikkinchi xatboshi uchinchi xatboshi deb hisoblansin.

4. 87-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“87. Yakuniy attestatsiya sinovlarida olgan bahosiga e’tiroz bildirgan o’quvchilarning arizalarini ko’rib chiqish uchun ta’lim tashkiloti direktorining buyrug’i bilan tegishli oliy ta’lim tashkilotining professor-o’qituvchilari hamda ta’lim tashkilotining rahbar va pedagog xodimlari tarkibidan 5 kishidan iborat Apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibidan komissiya raisi va mas’ul kotib tayinlanadi.

Bir shaxs bir vaqtning o’zida Imtixon komissiyasi va Apellyatsiya komissiyasi a’zosi bo’lishi mumkin emas.”.

5. 88-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“88. O’quvchilar yakuniy attestatsiya sinovlarida olgan baholaridan norozi bo’lgan taqdirda davlat imtihoni baholari e’lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni ichida Apellyatsiya komissiyasiga yozma yoki elektron shaklda apellyatsiya shikoyati berish huquqiga ega.

Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiya shikoyatini, u kelib tushgan kundan boshlab uch ish kuni ichida ko’rib chiqadi.

Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiya shikoyati qabul qilinganligi hamda apellyatsiya shikoyatini ko’rib chiqish kuni va vaqti to’g’risida o’quvchi yoki uning ota-onasi yoxud ularning o’rnini bosuvchi shaxslarga xabarnoma yuboradi.

Apellyatsiya shikoyatini ko’rib chiqishda o’quvchi yoki uning ota-onasi yoxud ularning o’rnini bosuvchi shaxslar ishtirok etish huquqiga ega.”.

6. Quyidagi mazmundagi 88<sup>1</sup>–88<sup>5</sup>-bandlar bilan to’ldirilsin:

“88<sup>1</sup>. Apellyatsiya shikoyatini ko’rishda o’quvchilarning davlat imtihoni natijasida olgan ballarini pasaytirishga yo’l qo’yilmaydi.

88<sup>2</sup>. Apellyatsiya shikoyatini ko’rib chiqish natijalari bo’yicha apellyatsiya komissiyasi tomonidan quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

davlat imtihoni natijalarini o'zgarishsiz qoldirish;

davlat imtihoni natijalariga o'zgartirish kiritish.

88<sup>3</sup>. Davlat imtihoni natijasini o'zgarishsiz qoldirish to'g'risidagi qaror apellyatsiya shikoyatida ko'rsatilgan dalillar o'z tasdig'ini topmagan hollarda qabul qilinadi.

Davlat imtihoni natijalariga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi qaror apellyatsiya shikoyatida ko'rsatilgan dalillar o'z tasdig'ini topgan hollarda qabul qilinadi.

88<sup>4</sup>. O'quvchi Apellyatsiya komissiyasi yig'ilishida bevosita ishtirok etgan taqdirda komissiya qarori shikoyat ko'rib chiqilgan kunning o'zida e'lon qilinadi.

O'quvchi Apellyatsiya komissiyasi yig'ilishida ishtirok etmagan taqdirda komissiya qaroridan ko'chirma bayonnoma rasmiylashtirilgan kundan boshlab bir ish kuni ichida o'quvchiga yuboriladi.

88<sup>5</sup>. O'quvchi apellyatsiya komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan taqdirda, yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilishi mumkin.”.